



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 30 858,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 6,5 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 110,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,0 % ga yetdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

| | Mlrd. so'm | | O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|---|-----------------|-----------------|---|
| | 2023- yil | 2024- yil | |
| I. YAHM, jami | 26 219,2 | 30 858,7 | 106,5 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 25 000,6 | 29 870,9 | 106,4 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 1 218,6 | 987,8 | 107,5 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 25 000,6 | 29 870,9 | 106,4 |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 5 377,5 | 6 008,8 | 103,5 |
| sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 7 593,8 | 8 920,2 | 107,1 |
| sanoat | 5 259,0 | 6 282,1 | 107,1 |
| qurilish | 2 334,8 | 2 638,1 | 107,2 |
| xizmatlar | 12 029,3 | 14 941,9 | 107,3 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 4 115,4 | 5 234,6 | 113,5 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 539,2 | 1 999,1 | 106,7 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 6 374,7 | 7 708,2 | 103,4 |



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 15 332,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga yuqoridir.

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)





2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

| | 2023- yil | 2024- yil |
|---|--------------|--------------|
| I. YAHM, jami | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 95,4 | 96,8 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 4,6 | 3,2 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 100,0 | 100,0 |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 21,5 | 20,1 |
| sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 30,3 | 29,8 |
| sanoat | 21,0 | 21,0 |
| qurilish | 9,3 | 8,8 |
| xizmatlar | 48,2 | 50,1 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 16,5 | 17,5 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 6,2 | 6,7 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 25,5 | 25,9 |




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 20,1 % ni, sanoat tarmog‘i 21,0 % ni, qurilish 8,8 % ni va xizmatlar sohasi 50,1 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil



● Yalpi qo‘shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,7 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrda – 0,9 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,4 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrda – 0,3 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrda – salbiy 0,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,3 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrda – 1,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrda – 0,4 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 20,1 %), sanoatda – 107,1 % (21,0 %), qurilishda – 107,2 % (8,8 %), xizmatlar sohasida – 107,3 % ni (50,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 113,5 % (17,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 106,7 % (6,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,4 % dan (25,9 %) iborat bo'ldi.


2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)





2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 110,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 111,6 % va xizmatlar sohasida – 115,8 % qayd etildi.

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)





2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 19 127,7 mlrd. so'mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 15 555,4 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 64,0 % ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 62,2 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan oshishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan bog'liq.

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2023- yil

15 555,4

62,2 %

2024- yil

19 127,7

64,0 %

